



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarbiya fani o'qutuvchisi

_____ *ning*
2023-2024-o'quv yiliga 8-sinflar uchun

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

2023-2024-o‘quv yili uchun tuzilgan tarbiya fanidan taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	Iftixorimsan - jannatmakon O‘zbekiston!	1		
2.	Iftixorimsan - jannatmakon O‘zbekiston!	1		
3.	Millatlararo hamjihatlik.	1		
4.	Har bir farzand vatan himoyachisi.	1		
5.	Hayotda o‘z istaklarimizni anglash.	1		
6.	Hayotda o‘z istaklarimizni anglash.	1		
7.	Qat’iy fe’l-atvorning muhimligi.	1		
8.	Qat’iy fe’l-atvorning muhimligi.	1		
9.	Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish.	1		
II chorak				
10.	Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish.	1		
11.	Hayot betakror ne’mat.	1		
12.	Tushkunlik va bezovtalikni boshqarish.	1		
13.	Tushkunlik va bezovtalikni boshqarish.	1		
14.	Mashaqqatlarni yengib o‘tish.	1		
15.	Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi.	1		
16.	Umumlashtiruvchi dars	1		
III chorak				
17.	Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi.	1		
18.	Fan-texnika taraqqiyoti va inson ma’naviyati.	1		
19.	Fan-texnika taraqqiyoti va inson ma’naviyati.	1		
20.	Ilm va zakovat.	1		
21.	Til bilgan - dunyo ko‘radi.	1		
22.	Til bilgan - dunyo ko‘radi.	1		
23.	Vaqtini - bebaho ne’mat.	1		
24.	Vaqtini - bebaho ne’mat.	1		
25.	Amaliy mashg‘ulot. Imkonsizlikni yengish va uning zamonaviy yechimlari.	1		
26.	Go‘zal tarbiya tamoyillari.	1		
IV chorak				
27.	Go‘zal tarbiya tamoyillari.	1		
28.	Tabiat va inson.	1		
29.	Tejamkorlik yaxshi fazilat.	1		
30.	Tejamkorlik yaxshi fazilat.	1		
31.	Xotira -buyuk qadriyat.	1		
32.	Xotira -buyuk qadriyat.	1		
33.	Umumlashtiruvchi dars/ Nazorat ishi	1		
34.	Yakunlovchi dars.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Iftixorimsan - jannatmakon O‘zbekiston!

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quchilarga iftixorimsan - jannatmakon O‘zbekiston mavzusi haqida tushunchalar berish, o‘z oldiga ezgu maqsad qo‘yish, nurli kelajakni ko‘zlab yashash va unga erishish uchun esa albatta o‘qib-o‘rganish, astoydil va maqsadli harakat qilish, ustoz-murabbiylar, yaxshi insonlarning foydali nasihatlariga quloq tutishi lozimligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yish, unga yetishish uchun nimalarga e’tibor berish kerakligini aniqlab olish, umr yo‘lida uchraydigan hayotning turli sinovlarini mardonavor yengib o‘tishi va vaqtlar o‘tib ko‘zlagan orzu-maqsadlariga erishishi uchun mashaqqatlarni yengishga bo‘lgan qattiq ishonch, mustahkam iroda, tirishqoqlik, g‘ayrat-shijoat kabi xislatlarini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish, O‘zbekistonning munosib farzandi bo‘lib yetishtirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo‘ladi, ma’suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o‘zini anglaydi, mustaqil sog‘lom fikrga ega bo‘ladi, orasta kiyinadi va sog‘lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Vatan - inson eng ko‘p o‘ylaydigan, so‘zlaydigan, kuylaydigan mavzu. Eng yuksak jasoratlar sababi - Vatan. Ajdodlarimiz Vatan deb jondan kechganlar. Ularning jasorati doim qalbimizda. Yurtimizda ular abadiy xotirlanadi, qadrlanadi. Hozirda ham bunday insonlar ko‘plab topiladi. Inson tug‘ilgach, asta-sekinlik bilan ulg‘ayadi, o‘zini o‘zga o‘lkalarda emas, faqat kindik qoni tomgan o‘z Vatanida kerakligini, uning bir bo‘lagi ekanligini his qilib boradi. Vatanini o‘z onasidek yaxshi ko‘radi, qadrlaydi. Vatan so‘ziga Ona so‘zining qo‘shilishi ham balki shundandir?! Yoshlik insonning porloq kelajagi uchun tinimsiz harakat qiladigan, o‘z ifori va chiroyini yo‘qotmagan bahor fasli kabi. Bu davrda har bir berilgan imkoniyatdan unumli foydalanib, o‘zining salohiyatini oshirib borgan, jamiyatda munosib o‘rin egallashga kirishgan yoshlarning kelajagi ham go‘zal va yaxshi bo‘ladi. Agar yoshlar o‘z muvaffaqiyatlari bilan yurt ravnaqiga hissa qo‘shayotgan tengdoshlaridan ibrat olsalar, jamiyat taraqqiyoti uchun o‘zlarining ham mas’ulligini anglab yetadilar. Yoshlarning kelajagi butun bir millatning shirin tashvishidir.

Bir donishmanddan so‘rashibdi:

- Haqiqiy vatanparvar kim?

Donishmand shunday javob beribdi:

- Vatan qudrati, el-yurt ravnaqi, yosh avlod kamolotiyo'ldida shaxsiy daxldorlikni his etgan va bu jarayonlarda faol bo'lgan inson. _____

1. Donishmand nima uchun shaxsiy daxldorlikni his etishni vatanparvarlikka bog'lab tushuntirmoqda. Fikringizni asoslang. Abdulla Avloniy o'z asarlari orqali vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini ilgari surib, yoshlarni Vatanga, xalqqa sadoqatli qilib kam ol toptirishga undagan. 2. «O'zi vatanparvar bo'lgan inson boshqalarni ham shunday ezgu maqsad sari yashashga undaydi va buni jamiyat oldidagi asosiy burchi deb biladi»,- degan fikrni Abdulla Avloniyning faoliyati bilan bog'lab tushuntiring.



Bir kuni bir donishmand shogirdlariga «Vatanni sevmok imondandir» deb aytibdi. Undan «Qaysi Vatanni?» deb so'rashibdi. «Ezgu amal qiluvchi insonlarning Vatani jannat», - deb javob beribdi donishmand. «Jannat qayerda?» - deb yana so'rashibdi. «Jannat onalar oyog'i ostida» debdi donishmand. «Unga qanday erishiladi?» deb yana savol berishibdi shogirdlar. «Onaning roziligi bilan erishiladi», deb javob beribdi donishmand. Shuning uchun ham Vatan onaga qiyos qilinadi. Vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek ardoqlash unga munosib farzand bo'lishni anglatadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Quyida berilgan rasmlar asosida bugungi kun yoshlari jamiyatning faol a'zosi ekanligini izohlang.
2. Ajdodlardan qolgan ma'naviy meros qachon hayotimizning mazmun-mohiyatiga aylanadi?
3. «Dunyoni bilimli yoshlar egallaydi!» deganda, Siz nimani tushunasiz?

Fikringizni asoslang.

4. Mazkur suratlardagi tengdoshlaringiz va aka-opalaringiz xalqaro fan olimpiadalari hamda sportning turli yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda shohsupaning eng yuqori pog'onasini egallashgan. Bunda ularga qanday fazilatlar yetakchilik qilgan, deb o'ylaysiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Iftixorimsan - jannatmakon O‘zbekiston!

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quchilarga iftixorimsan - jannatmakon O‘zbekiston mavzusi haqida tushunchalar berish, o‘z oldiga ezgu maqsad qo‘yish, nurli kelajakni ko‘zlab yashash va unga erishish uchun esa albatta o‘qib-o‘rganish, astoydil va maqsadli harakat qilish, ustoz-murabbiylar, yaxshi insonlarning foydali nasihatlariga quloq tutishi lozimligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yish, unga yetishish uchun nimalarga e’tibor berish kerakligini aniqlab olish, umr yo‘lida uchraydigan hayotning turli sinovlarini mardonavor yengib o‘tishi va vaqtlar o‘tib ko‘zlagan orzu-maqsadlariga erishishi uchun mashaqqatlarni yengishga bo‘lgan qattiq ishonch, mustahkam iroda, tirishqoqlik, g‘ayrat-shijoat kabi xislatlarini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish, O‘zbekistonning munosib farzandi bo‘lib yetishtirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo‘ladi, ma’suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o‘zini anglaydi, mustaqil sog‘lom fikrga ega bo‘ladi, orasta kiyinadi va sog‘lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Yurtni sevish ajdodlarimiz ma’naviyatidan mustahkam o‘rin olgan tuyg‘udir. Zero, Vatanga muhabbat tuyg‘usi muqaddasdir. Qadimdan otabobolarimiz Vatan, millat manfaati, or-nomusi, qadr-qimmatini har narsadan ustun qo‘yib, Vatanga muhabbat, elga hurmat, sadoqatni muqaddas tuyg‘u deb bilganlar. Shu tuyg‘uga ega bo‘lgan inson el-yurt ehtiromiga sazovordir. Bunday insonni dunyo taniydi. Ajdodlardan qolgan ma’naviy meros biz avlodlarga omonat hisoblanadi. Ma’naviy merosimiz xazinasidagi ko‘plab durdona asarlar xalqimizga xos bo‘lgan ezgu fazilatlar, ezgu xislatlarni mujassam etgan o‘lmas boylikdir. Ulardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishning samarasini inson voyaga



yetgan sari anglab-yetib boraveradi. Chunki ularda yurt qadri, inson fazilati va faqat ezgu ishlar bilan umr kechirish aytib o‘tilgan.

Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

1-bosqich: Bo‘shliq haqida 5 ta fikr asosida jadvalni to‘ldiring. Vaqt 3 daqiqa.



T/r	Bo‘shliq	Uni keltirib chiqargan sabablar	Bartaraf etish yo‘llari
1.			
2.			
3.			

O‘ZBEKISTON HAQIDA NIMA BILASIZ?

Daftaringizga nuqtalar o‘rniga kerakli ma’lumotlarni qo‘yib, ko‘chiring.

1. O‘zbekiston Yer yuzining qaysi qit’asida joylashgan.
2. O‘zbekiston.....qit’asida joylashgan.
3. shahri O‘zbekistonning poytaxtidir.
4. O‘zbekistonning aholisi mln. nafarni tashkil etadi.
5. O‘zbekistonning pul birligi



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Vatanparvar ajdodlarimiz haqida qanday badiiy asarlar o‘qigansiz?
2. Zamonamiz qahramonlari deb kimlarni bilasiz?
3. Vatanparvar bo‘lish uchun bugungi kunda qangay sa’y-harakatlarni amalga oshirish kerak deb o‘ylaysiz?
4. Prezidentimizning yuqorida berilgan fikrlarida «bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi», deganda qanday bo‘shliq nazarda tutilgan?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

*v**eb-saytimiz: Zokirjon.com***

Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

Tarbiya fanidan 8-sinflarga konspektni to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.


Narxi: 25 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**